



Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026- yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 43 368 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi



Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1- iyul holatiga, birlik	2026- yil 1- iyul holatiga, birlik
Toshkent viloyati	38 140	43 368
Oqqo'rg'on tumani	954	1 080
Ohangaron tumani	1 044	1 211
Bekobod tumani	1 087	1 341
Bo'stonliq tumani	2 064	2 380
Bo'ka tumani	1 055	1 188
Quyi Chirchiq tumani	1 143	1 320
Zangiota tumani	4 680	5 299
Yuqori Chirchiq tumani	1 899	2 213
Qibray tumani	3 355	3 737
Parkent tumani	2 348	2 892
Piskent tumani	844	987
O'rta Chirchiq tumani	1 669	1 902
Chinoz tumani	1 023	1 104
Yangiyo'l tumani	1 762	2 007
Toshkent tumani	2 776	3 173
Nurafshon shahri	868	1 019
Olmaliq shahri	1 561	1 765
Angren shahri	2 009	2 224
Bekobod shahri	1 272	1 283
Ohangaron shahri	863	985
Chirchiq shahri	2557	2 716
Yangiyo'l shahri	1307	1 412

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




Iqtisodiy faoliyat turlari

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2026- yilning yanvar-iyunida 4 576 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 1 737 ta, sanoatda 615 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 509 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni





Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2025- yil yanvar-iyun oylarida, birlik	2026- yil yanvar-iyun oylarida, birlik
Toshkent viloyati	4 109	4 576
Oqqo'rg'on tumani	98	132
Ohangaron tumani	139	160
Bekobod tumani	154	188
Bo'stonliq tumani	246	282
Bo'ka tumani	136	142
Quyi Chirchiq tumani	123	136
Zangiota tumani	495	537
Yuqori Chirchiq tumani	167	272
Qibray tumani	329	311
Parkent tumani	242	300
Piskent tumani	97	106
O'rta Chirchiq tumani	165	227
Chinoz tumani	96	128
Yangiyo'l tumani	212	171
Toshkent tumani	323	336
Nurafshon shahri	127	140
Olmaliq shahri	174	175
Angren shahri	138	206
Bekobod shahri	137	113
Ohangaron shahri	41	52
Chirchiq shahri	121	141
Yangiyo'l shahri	58	70

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2026- yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 49,7 % ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 2,8 % punktga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi






Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 25 324,3 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 25,3 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 122,0 % ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 15 401,4 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 82,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 117,6 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 22 158,5 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 68,0 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Oqqo'rg'on (97,6%) tumani, hamda Bekobod (95,6 %), Yangiyo'l (93,7 %) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 22 061,1 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 92,4 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 104,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Ohangaron (100,0 %), Chirchiq (99,7 %) va Bekobod (99,6 %) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 18 430,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 75,2 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 101,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Ohangaron (91,9%), Angren (91,1%) shaharlari hamda Yangiyo'l (94,4 %), tumani hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 32 618,6 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 71,3 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 119,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Bo'ka (80,8 %), Oqqo'rg'on (78,5 %), tumanlarida hamda Yangiyo'l (81,7 %) shahri hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 516,3 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 35,0 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Yangiyo'l (94,5 %) shahar hamda Bekobod (99,8 %), Bo'ka (99,8 %) tumanlarini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Yillar

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 1 478,5 mln AQSH dollarini yoki jami importning 57,6 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Yangiyo'l (91,9 %), Chirchiq (81,8 %) shaharlarida hamda Oqqo'rg'on (97,0 %), tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 43,5 % ni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 7,8 % punktga ko'paygan.

2026- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 51,7 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati -6,2 % punktini tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,1 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan -0,1 % punktga kamaygan.

2026- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,4 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 0,1 % punktga ko'paygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar-iyunida 30,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-iyunida esa 51,8 % ga yetgan yoki 2022- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 21,1 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2022- yilning yanvar-iyunida 60,1 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-iyunida 31,8 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2022- yilning yanvar-iyunida 9,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026- yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 6,7 % bo'lgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar-iyunida 31,5 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-iyunida 43,1 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2022- yilning yanvar-iyunida 59,7 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-iyunida 53,6 % yoki 6,1 birlikka kamaygan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2022- yilning yanvar-iyunida 8,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026- yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 3,3 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash

Kichik korxona va mikrofirmalarning 2026- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sog'liqni saqlash 72,7 %ni, yashash va ovqatlanishda – 57,0 % ni, savdoda – 55,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi axborot va aloqada – 41,2 % ni, tashish va saqlashda – 39,6 % ni va qurilishda – 39,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 10,3 % ni, qurilishda – 7,4 % ni va savdo sohasida – 8,8 % ni tashkil etdi.




Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)

Kichik korxona va mikrofirmalarning 2026- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar bo'yicha ko'payish deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sog'liqni saqlash sohasida – 44,4 % ni, savdo sohasida – 36,8 % ni va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 34,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar bo'yicha o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi tashish va saqlash sohasida – 68,3 % ni, yashash va ovqatlanish sohasida – 64,2 % ni va qishloq o'rmon va baliqchilik sohasida – 62,1 % ni tashkil etdi.



O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlari kamaygan deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi axborot va aloqa – 13,3 % ni, qurilish sohasida – 12,2 % ni va qishloq o'rmon va baliqchilik sohasida – 8,9 % ni tashkil etdi.



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.